(12). Omonov Bahodir. "Problems and Consequences Of Water Deficiency In Central Asia." Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry 12.8 (2021).

Sultamuratov Begis Utebaevich (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi)

EKOLOGIK MADANIYAT: TIZIMLI FUNKSIONAL TAHLIL

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ekologik madaniyatning tizimli funksional tahlili ilmiy o'rganiladi. Ekologik madaniyatning funksiyalarini aniqlash va klassifikatsiyalashda bir qator tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ekologik madaniyat, tizim, funksional yondashuv, qadriyat funksiyasi, regulyativ funksiya, ma'naviy-ma'rifiy, ekologik ong, ekologik bilim.*

Султамуратов Бегис Утебаевич (Независимый исследователь Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни)

ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА: СИСТЕМНЫЙ ФУНКЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *В данной статье научно изучается системно-функциональный анализ экологической культуры. При определении и классификации функций экологической культуры анализируются научные работы ряда исследователей.*

Ключевые слова: *экологическая культура, система, функциональный подход, ценностная функция, регулятивная функция, духовно-просветительская, экологическое сознание, экологические знания.*

Sultamuratov Begis Utebaevich (Independent researcher at Urgench State University named after Abu Raykhan Beruni)

ECOLOGICAL CULTURE: SYSTEMATIC FUNCTIONAL ANALYSIS

Annotation. *This article scientifically examines the systematic functional analysis of ecological culture. The scientific works of a number of researchers are analyzed in determining and classifying the functions of ecological culture.*

Keywords: *ecological culture, system, functional approach, value function, regulatory function, spiritual and educational, ecological consciousness, ecological knowledge.*

Kirish. Ekologik madaniyatga ijtimoiy-falsafiy yondashuv uning ichki tizimlarini va funktsional xususiyatlarini tizimli-funktsional tahlil qilishga undaydi. "Tizimli funktsional yondashuvni tadqiqot obyekti talab etadi. Tizimga taalluqli qismlar, bo'laklar o'rtasidagi funktsional munosabatlar, aloqalar tizimli funksional yondashuvning predmetidir. Mazkur munosabatlar, aloqalar:

–tizim (butun, sistema) talablariga;

–qismlar, bo'laklar ixtiyoriga;

–tashqi tazyiqlar ta'siriga, zo'rloviga muvofiq tashkil etilishi mumkin" [1;88–89-b.].

Qismlar, bo'laklar tizimning atributlaridir. Shu nuqtayi nazardan, "Tizim (butun, sistema)ning yaxlitligini asrash va rivojlantirish yo'llarini topish tizimli funksional yondashuv oldidagi asosiy vazifadir" [1;89-b.]. Demak, har bir o'rganiladigan obyektning ichki qismlari, bo'laklari aniqlanishi, ularning tizimga (sistemaga) munosabatlari tahlil qilinishi zarur. Ana shunda obyekt, bizning misolimizda ekologik madaniyat, butun voqelik sifatida tadqiq etiladi, uning ichki qismlari, bo'laklari butunga (sistemaga) qanday xizmat qilishi ochib beriladi. Shuning uchun qismlar, bo'laklar o'zining vazifalarini butundan, sistemadan oladi, pirovard natijada, butun, sistema maqsadiga xizmat qilishiga qarab baholanadi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Ilmiy adabiyotlarda nafaqat madaniyatning, shuningdek, ekologik madaniyatning ham funksiyalari turlicha talqin qilinadi. Masalan, falsafa fanlari doktori, professor A.A. Fortunov ularga qadriyat funksiyasi, regulyativ funksiya, sotsial tajribani yetkazish funksiyasi, dialog funksiyasi va belgilik funksiyasi xos deb ko'rsatadi [2;114-b.]. Mazkur funksiyalarni belgilashda u madaniyatshunoslikda e'tirof etilgan qarashlar va klassifikatsyalashdan kelib chiqadi. Bu borada u V.L.Benin, V.S. Bibler, E.V.Ilenkov, M.S.Kagan, L.N.Kogan, E.V.Sokolov, V.A.Sitarov, V.V.Pustovoytov kabi olimlarning tizimli-funksional yondashuvlariga tayanadi. Biroq A.A.Fortunatov nima uchun aynan ushbu beshta funksiya ekologik madaniyatga xos ekanini ilmiy asoslamaydi, natijada funksiyalar tadqiqotchining subyektiv xohishi mahsuli sifatida qabul qilinadi. Sotsiolog O.M.Doroshko esa ekologik madaniyatga: 1) insonning tabiatga bo'lgan munosabatlari; 2) shaxsning boshqalar va jamiyatga bo'lgan munosabatlari; 3) insonning o'ziga bo'lgan munosabatlarini kiritadi [3;8–11-b.]. Mazkur munosabatlar u yoki bu ko'rinishda deyarli barcha, ayniqsa, ijtimoiy-falsafiy yo'nalishlardagi tadqiqotlarda e'tirof etiladi. Dotsent V.M. Logvinenko ekologik madaniyat funksiyalarini tashkillashtirish, regulativ, bashorat, innovat-siya kabilarga

ajratadi [4]. Ammo muallif funksiyalarni klassifikatsiyalashda qanday ilmiy metodologik prinsiplardan kelib chiqqanini aytmaydi. Bu esa ilmiy volyuntarizmdek tuyuladi. O‘zbekistonlik tadqiqot-chi O.V. Levinskaya ekologik madaniyatga ma’naviy-ma’rifiy voqelik sifatida yondashib, uning funksiya-larini ma’naviy tarbiya, ma’rifiy targ‘ibot, tabiatni asrash, ekologik dunyoqarash, ekologik amaliyot yoki ekologik harakatlar (xashar, ko‘kalamzorlashtirish va boshqalar)ga ajratadi [5;6–7-b.]. Shunga yaqin klassifikatsiyalashni biz Sh.L.Mahmudova, E.J.Ikromov, A.A.Xotamov, N.Sh.Bozorova, A.Amonlayev kabi tadqiqotchilarda ham kuzatamiz [6;11–19-b.]. To‘g‘ri, ushbu tadqiqotlarda ekologik madaniyatning nafaqat ijtimoiy-falsafiy, shuningdek, pedagogik (N.Sh.Bozorova), antropologik (E.J.Ikromov, A.A.Xotamov), sotsioantropologik (A.Amonlayev) va gumanistik (Sh.L.Mahmudova) jihatlariga e’tibor qaratiladi va uning ijtimoiy funksiyalari ana shu yondashuvlarga muvofiq klassifikatsiya qilinadi.

Muhokama. Ushbu klassifikatsiyalash bilan bahslashish, uning ayrim tomonlariga e’tiroz bildirish mumkin. Biroq, ular keltirgan klassifikatsiyalash qanday ilmiy metodologik asosda amalga oshirildi? Unga nima, ekologik madaniyatning qaysi jihatlari, immanent xususiyatlari asos qilib olindi? Ekologik madaniyatni tayyor sxema yoki ta’rif sifatida tatbiq etish qiyin emas, ammo uni ilmiy metodologik nuqtayi nazardan asoslash qiyin. Funksiyalarni klassifikatsiyalash ma’lum bir ilm-fanda, ayniqsa, falsafada e’tirof etilgan ilmiy konseptual qarashga tayanishi darkor. Buni gnoseologiyasiz, aniqrog‘i, insonning tabiatga, yonatrofga, jamiyatga, kelajakka munosabatlarini o‘rganishsiz amalga oshirish qiyin. Ekologik madaniyatning funksiyalari faqat ekologiyaning o‘zi uchun emas, balki inson va uning hayotni asrashga qaratilgan ekzistensial faoliyatini ratsional yo‘naltirish, tartibga solish va ekogarmoniyani shakllantirish uchun zarurdir.

Ekomadaniyat bir-biriga mohiyatan zid ikki – ekologiya va madaniyat hodisalaridan tashkil topgan. Ekologiya tabiat, yon atrof, makon haqidagi ta’limot bo‘lib, ularning substantsional asosi tabiatdadir. Tabiat inson xohish va istaklarining mahsuli emas, u azaldan, inson istaklaridan, faoliyatidan tashqarida mavjuddir. Madaniyat esa inson, uning istak va faoliyati tomonidan barpo etilan moddiy va ma’naviy boyliklar yig‘indisi hisoblanadi. Ekologik madaniyatda ushbu ziddiyatli ikki voqelik, hodisa uyg‘un keladi. Bu esa ekologik madaniyatning funksiyalarini aniqlashda nazariy qiyinchiliklar uyg‘otadi. Ularni aniqlashda nimaga – ekologiyagami yoki madaniyatgami urg‘u berish lozim? degan savol uyg‘otadi. Bizning fikrimizcha, bu o‘rinda urg‘u ekologiyaga berilishi darkor, chunki unda asosiy muammo madaniyatda emas, balki ekologiyadadir. Madaniyat esa unda ekologiyaning mohiyatini emas, balki bir ijtimoiy xususiyatini ifodalab keladi. Ilm-fanda bunday yondashuvlar tez-tez uchrab turadi. Masalan, huquqiy madaniyat deganda urg‘u, asosan, huquq fenomeniga beriladi [7;108–188-b.]. Yoki siyosiy madaniyat, tibbiy madaniyat deganda urg‘u madaniyatga emas, balki siyosatga va tabbiyotga, ularning funksiyalariga beriladi. Ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan, bu to‘g‘ri.

Natijalar. Demak, ekologik madaniyatning funksiyalarini aniqlash va klassifikatsiyalashda asosiy e’tibor ekologiyaga qaratiladi, ekologiyaning tub, substansional asosi va mohiyati birlamchi bo‘lib olinadi. Ushbu asos va mohiyatni quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin:

–ekologik ong;
–ekologik bilim;
–ekologik e’tiqod;
–ekologik faoliyat;
–ekologik taraqqiyot.

Mazkur klassifikatsiyalashda subyektiv omildan obyektiv omilga, ya’ni, subyektivlashishdan obyektivlashtirishga o‘tish, ijtimoiy harakat asos qilib olindi. Bu harakat ekologik taraqqiyotda o‘z cho‘qqisiga yetadi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadi. “Ekologik taraqqiyot” ilmiy adabiyotlarda uchramaydi, u bizning, ilmiy adabiyotlarni o‘rganish jarayonida erishgan pastulatimizdir. U ekologik ong, ekologik bilim, ekologik e’tiqod va ekologik faoliyatning pirovard natijasidir. Ularning har biri alohida quntsiya sifatida qaralishi, o‘rganilishi mumkin, ammo ular o‘zining maqsadli sa’y-harakat ekanini ekologik taraqqiyotda namoyon etadi. Ekologik taraqqiyot jamiyat taraqqiyotini tarkibiy qismi, ikkinchisiz birinchisiga erishish mushkul. Birinchisini futurologik model tarzida qabul qilish qiyin emas, ba’zan esa jamiyat taraqqiyoti (balki tanazzuli?!) ekologik taraqqiyotni nazarga olmasligi mumkin. Masalan, insoniyat taraqqiyoti XX asrgacha ekologik muammo nima ekanini bilmagan, lekin jamiyatlar taraqqiy etib kelgan. Bugun insoniyat taraqqiyoti mutlaq boshqa tartibga, talablarga duch kelmoqda, endi jamiyat taraqqiyotini ekologik taraqqiyot bilan uyg‘unlashtirishni taqozo qilmoqda. Uni qisqacha sotsioekologik taraqqiyot deyish mumkin.

Ekologik yoki sotsioekologik taraqqiyot: 1) inson – jamiyat-tabiat tizimida sotsioekogarmoniyaning shakllanishi; 2) inson faoliyatiga sotsioekotizimni barqarorlashtirish omili sifatida qarash; 3) sotsioekopa-

radigmani takomillashtirib borishdan jamiyat manfaatdor bo‘lishi; 4) ekofalokatlar va ekofojialarni bartaraf etishning samarali, ratsional usullarini topish; 5) inson hayotini, faoliyati va turmushini zavqli, sermazmun va oliyjanob qilishda namoyon bo‘ladi. Bu sotsioekologik parametrlar muammoni ijtimoiy-falsafiy idrok va tahlil qilish jarayonida shakllandi, ularni yana boyitish, ekzistensial nuqtayi nazardan glo-bal voqelikka aylantirish mumkin.

Xulosa. Ekologik madaniyatni tizimli-funksional tahlil qilish, uning mohiyati, tarkibiy elementlari va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini chuqurroq anglash imkonini beradi. Tadqiqot davomida ekologik madaniyat funksiyalarining turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingani, biroq ularni klassifikatsiyalashda yagona metodologik yondashuvning yetarli darajada shakllanmaganligi aniqlandi. Shu sababli ekologik madaniyat funksiyalarini aniqlashda ekologiyaning substansional mohiyati va inson–jamiyat–tabiat tizimidagi o‘zaro aloqalar asos qilib olindi.

Tadqiqot natijasida ekologik madaniyatning asosiy funksional tarkibi ekologik ong, ekologik bilim, ekologik e’tiqod, ekologik faoliyat va ekologik taraqqiyot kabi bosqichlardan iborat ekanligi asoslandi. Mazkur elementlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, subyektiv munosabatlarning obyektiv ijtimoiy amaliyotga aylanish jarayonini ifodalaydi. Ayniqsa, ekologik taraqqiyot ekologik ong, bilim, e’tiqod va faoliyatning pirovard natijasi sifatida namoyon bo‘lib, sotsioekologik rivojlanishning muhim mezoni hisoblanadi.

Shuningdek, ekologik madaniyatning asosiy vazifasi inson, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash, sotsioekogarmoniyani shakllantirish hamda ekologik xavf va tahdidlarning oldini olishga xizmat qilishi isbotlandi. Hozirgi globallashuv va ekologik muammolar kuchayib borayotgan sharoitda jamiyat taraqqiyotini ekologik taraqqiyot bilan uyg‘unlashtirish zarurati yanada ortib bormoqda.

Demak, ekologik madaniyat nafaqat ma’naviy-ma’rifiy qadriyat, balki insoniyatning barqaror rivojlanishi, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va kelajak avlodlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois ekologik madaniyatning tizimli-funksional asoslarini yanada chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish zamonaviy ilm-fan hamda jamiyat taraqqiyotining dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Алимасов В. Илмий тадқиқот методологияси. Дарслик, Тошкент, “Фан ва таълим полиграф”, 2025, 88–89-бетлар.

(2). Фортунатов А.А. Функции экологической культуры: анализ определений. Знание. Понимание. Умение. 2015, № 4, с. 114.

(3). Дорошко О.М. Формирование экологической культуры как цель образования для устойчивого развития. Гродно, ГрГУ им. Я.Купалы, 2010, с. 8–11.

(4). Логвиненко В.М. Функции экологической культуры и их значение в учебном процессе. Электронний ресурс. Режим доступа: www.confrences.neasmo.org.ua;

(5). Левинская О.В. Понятие, структура и функции экологической культуры. Автореферат дисс. на соиск. уч. степени канд. филос. наук, 2000, с. 6–7.

(6). Махмудова Ш.Л. Экологическая культура как фактор гуманизации отношения общества к природе. Дисс. на соиск. уч. степени канд. филос.наук, Тошкент, 1994; Икрамов Э.Ж., Хатамов А.А. Шахснинг экологик маданияти. Тошкент, Ибн Сино номидаги нашр., 2001; Бозорова Н.Ш. Талабаларда экологик маданиятни шакллантиришнинг илмий-педагогик асослари. Пед. фан.номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация, Қарши, 2006; Амонлаев А. Экологическая культура человека и ее особенности. “Тарих ва жамият”, 2021, 1-сон, 11–19-бетлар.

(7). Тожихонов У., Саидов А. Ҳуқуқ маданияти назарияси. 1-том, Тошкент, ИИВ Академияси, 1997, 108 –188-бетлар.

Mamatqulova Nilufar Xusanovna (Toshkent davlat Tibbiyot universiteti Termiz filiali “Ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti v.b, (PhD)

MAROSIMLARNING IJTIMOIY FUNKSIYALARI VA ULARNI O‘RGANISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada marosimlarning jamiyatdagi o‘rni, ularning ijtimoiy funksiyalari va mazkur fenomenni tadqiq etishning yetakchi nazariy-metodologik yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida marosimlarning integrativ, kommunikativ, regulyativ, identifikatsion, kompensator-psixologik va ijtimoiy xotirani saqlash kabi asosiy vazifalari tizimlashtirilgan. Sharq-turkiy axloqiy-pedagogik meros G‘arb sotsiologik maktablari bilan sintez qilinib, marosimlar transformatsiyasini baholashning obyektiv mezoni ishlab chiqilgan.*